

**O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI
BAHOLASHNING YANGI BOSQICHI**

Esonboyev Behro‘z Zohid o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik

Yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekistonda davlat boshqaruvi samaradorligini baholashning zamonaviy bosqichi, tizimdagi transformatsiya jarayonlari va KPI (asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari) asosida ishni tashkil etish masalalari tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda davlat organlari faoliyatini "inson qadri uchun" tamoyili asosida qayta ko‘rib chiqish, byurokратиyani kamaytirish va raqamli boshqaruvni joriy etish orqali erishilayotgan natijalar yoritilgan. Maqola davlat boshqaruvi, siyosatshunoslik va ijtimoiy menejment yo‘nalishi bo‘yicha izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar hamda soha mutaxassislari uchun mo‘ljallangan.*

Kirish. So‘nggi yillarda dunyo miqyosida davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish masalasi strategik ahamiyat kasb etib, boshqaruvning an‘anaviy shakllaridan natijaga yo‘naltirilgan, ochiq va hisobdor modellariga o‘tish jarayoni jadallashdi. Ushbu jarayon O‘zbekiston uchun ham muhim bo‘lib, ayniqsa 2021-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagi PF–6269-son Farmoniga muvofiq 2021-yildan keyingi davrda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar davlat boshqaruvi samaradorligini baholash masalasini yangi bosqichga olib chiqdi¹. Jumladan, davlat boshqaruviga doir quyidagi ishlar amalga oshirildi:

a) Davlat xizmatlari markazlari, “Litsenziya” axborot tizimi hamda YIDXP

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagi PF–6269-son Farmoni.

orqali ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatidan uch ish kunidan ortiq vaqtga kechiktirilganda, ariza beruvchilarning murojaatlariga asosan, xizmatdan foydalanish uchun to'langan davlat bojlari, yig'imlar va boshqa har qanday to'lovlarning 50 foizi ularga bir ish kunida qaytariladi. Bunda ariza beruvchiga to'lovlar Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qaytariladi va Adliya vazirligi tomonidan davlat xizmatini ko'rsatish muddatini kechiktirgan davlat organi va tashkilotining budjetdan tashqari va boshqa mablag'lari hisobidan so'zsiz (akseptsiz) tartibda undirib olinadigan bo'ldi;

b) 2021-yil 1-dekabrda boshlab esa chet elda doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, xorijiy jismoniy va yuridik shaxslar hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga elektron raqamli imzo kaliti sertifikatlarini O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari tomonidan berish orqali elektron davlat xizmatlaridan foydalanish imkonini yaratildi;

c) O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini soddalashtirilgan tartibda tuman (shahar) migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalarida hamda davlat xizmatlari markazlarida amalga oshirildi;

d) litsenziya, ruxsatnoma, sertifikat va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning dublikatini berish uchun qonunchilik hujjatlarida milliy valyutada belgilangan to'lovlarni bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizigacha miqdorda belgilash (qonunchilik hujjatlarida to'lovlar belgilanmagan yoki bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizidan kam miqdorda belgilangan hollar bundan mustasno). Bunda, QR-kod qo'yilgan litsenziya, ruxsatnoma, sertifikat va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning dublikatlarini berish uchun to'lov undirilmaydigan bo'ldi.

Mavzuga oid ma'lumotlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-dekabrda "Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada

oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-243-sonli Farmoni davlat xizmati sohasidagi muhim hujjatlardan biridir. U boshqaruv tizimini takomillashtirish va davlat xizmatchilari faoliyatining natijadorligini oshirishga qaratilgan. Farmon davlat boshqaruvi tizimiga yangi yondashuvlarni joriy etishni nazarda tutdi. Unga ko'ra:

- a) boshqaruv samaradorligi agentligi faoliyati kuchaytirildi.
- b) ayrim tuman (shahar) hokimliklarida boshqaruvning yangi, samaradorlikka yo'naltirilgan mexanizmlari sinovdan o'tkazildi.
- c) davlat xizmatchilarining malakasini oshirish va ularda zarur "qattiq" va "yumshoq" ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratildi.
- d) raqamli texnologiyalar va davlat siyosatini boshqarish akademiyasining roli oshirildi².

O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi sohasida faoliyat yurituvchi tadqiqotchi olim Dilmurod Qodirov natijaga yo'naltirilgan baholash mexanizmlarini joriy etish boshqaruv qarorlarining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini aniqlash imkonini berganini ta'kidlaydi³. Fikrimizcha, natijaga yo'naltirilgan baholash mexanizmlari boshqaruv qarorlarining haqiqiy ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Ta'kidlashimizcha, bu yondashuv rahbarlarni faqat hisobotlar bilan cheklanmasdan, real natijaga erishishga undaydi va boshqaruv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi. O'zbekistonda ushbu modelga o'tish jarayoni ayniqsa 2021-yildan keyin jadallashib, davlat boshqaruvi mazmunan yangi bosqichga ko'tarildi⁴. 2021-yilgacha O'zbekistonda davlat boshqaruvi samaradorligini baholash asosan jarayoniy va buyruqbozlikka asoslangan model doirasida amalga oshirilgan.

Zamonaviy boshqaruv tizimlarida samaradorlikni baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (Key

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-dekabrda "Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-243-son Farmoni.

³ Qodirov D. Davlat boshqaruvida baholash mexanizmlarining nazariy asoslari. – Toshkent: Akademya nashri, 2022. – 56 b.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF-6269-son Farmoni.

Performance Indicators – KPI) tashkilotlar faoliyatini baholash va boshqarishning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. KPI tushunchasining shakllanishi boshqaruv nazariyalarining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. KPI’ning tarixiy ildizlari XX asr boshlarida ilmiy boshqaruv maktabi vakillari, xususan F. Teylor tomonidan ishlab chiqilgan mehnat unumdorligini o‘lchashga qaratilgan yondashuvlarga borib taqaladi⁵. Keyinchalik, XX asrning o‘rtalarida P. Druker tomonidan ilgari surilgan “Maqsadlar orqali boshqaruv” (Management by Objectives) konsepsiyasi tashkilot faoliyatini aniq maqsadlar asosida baholash zaruratini yuzaga keltirdi va KPI tizimining shakllanishiga nazariy asos bo‘lib xizmat qildi⁶. Bugungi kunda KPI tizimi davlat va xususiy sektor tashkilotlarida boshqaruv samaradorligini oshirish, strategik maqsadlarning amalga oshirilish darajasini baholash hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlashda keng qo‘llanilmoqda. KPI’larning joriy etilishi tashkilot faoliyatini o‘lchab bo‘ladigan ko‘rsatkichlar asosida baholash, xodimlar mas‘uliyatini oshirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, KPI tizimi tashkilot oldiga qo‘yilgan maqsadlarni aniqlashtirish, erishilgan natijalarni tahlil qilish va xodimlarni rag‘batlantirish mexanizmlarini adolatli tashkil etish imkonini beradi. Natijada, KPI’lar strategik va operatsion boshqaruv o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta‘minlab, tashkilotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv instrumenti sifatida namoyon bo‘ladi. Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish jarayonida boshqaruv faoliyatini aniq, o‘lchab bo‘ladigan va natijaga yo‘naltirilgan mezonlar asosida baholash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida davlat organlari faoliyatini baholashda KPI (Key Performance Indicators) tizimini joriy etish aynan shu ehtiyojdan kelib chiqdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-noyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoniga muvofiq davlat va mahalliy hokimiyat organlari raqamli rivojlanish

⁵ Taylor, F. W. The Principles of Scientific Management. New York: Harper & Brothers, 1911.

⁶ Drucker, P. F. The Practice of Management. New York: Harper & Row, 1954.

bo'yicha ixtisoslashtirilgan bo'linmalarining mas'ul xodimlari bilan ishlash mexanizmini takomillashtirish, shu jumladan raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadlariga erishishga asoslangan moddiy rag'batlantirish tizimini (KPI) joriy etildi.

XULOSA

O'zbekistonda davlat boshqaruvi samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagi PF-6269-son "Davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mamlakatda davlat boshqaruvi samaradorligini baholashga nisbatan yondashuvni tubdan o'zgartirdi. Mazkur hujjat bilan davlat xizmatlari sifatini oshirish, ularni ko'rsatish muddatlariga rioya etish va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi institutsional asos yaratildi.

Davlat boshqaruvi samaradorligini baholash masalasi alohida ustuvor yo'nalish sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida belgilandi. Ushbu Farmon doirasida davlat organlari tuzilmasini maqbullashtirish, ularning sohaga oid bo'lmagan vazifalarini qisqartirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks choralar amalga oshirildi. Natijada davlat boshqaruvi jarayonlari soddalashtirilib, xizmatlar ko'rsatish sifati va tezkorligi sezilarli darajada yaxshilandi. Davlat boshqaruvi samaradorligini baholashda KPI (Key Performance Indicators) tizimining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu yo'nalishda huquqiy asos sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-noyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni xizmat qildi. KPI tizimi davlat organlari va rahbarlar faoliyatini aniq, o'lchab bo'ladigan va natijaga yo'naltirilgan mezonlar asosida baholash imkonini yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagi PF–6269-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-dekabrda “Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–243-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF–6269-son Farmoni.
4. Qodirov D. Davlat boshqaruvida baholash mexanizmlarining nazariy asoslari. – Toshkent: Akademi-nashr, 2022. – 56 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF–6269-son Farmoni.
6. Taylor, F. W. The Principles of Scientific Management. New York: Harper & Brothers, 1911.
7. Drucker, P. F. The Practice of Management. New York: Harper & Row, 1954.